

**O'ZBEKISTONNING IQTISODIYOT, TARAQQIYOT
BOSQICHLARIDA TIBBIYOTNING O'RNI**

MUXTAROV BEKZOD BOYMURAT O'G'LI

Toshkent Davlat Stomatologiya Instituti

1-bosqich magistratura talabasi

Ilmiy raxbar f.f.n.dotsent, Sattorova, D. G.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tibbiyot tarixi fani boshqa tibbiy bilimlar qatorida alohida o'rin tutadi. U tibbiyotni kengroq va chuqurroq o'rganadi. Tibbiyotning taraqqiyot qonunlarini ochadi. Bo'lajak hakim (vrach)lar uchun tibbiyot tarixi fanini bilish muhim ahamiyatga ega. Tibbiyot tarixi fani tibbiyotning mohiyatini to'g'ri tushunish va uning rivojlanish qonunlarini o'rganishda talabalarga dastur bo'lib xizmat qiladi. Ularning bilim darajasi va saviyasini yuksaltiradi. Talabalar tibbiyot tarixini o'rganib, insoniyat jamiyati taraqqiyotining turli davrlarida yashagan tib olimlarining tibbiyot haqidagi fikr va mulohazalari bilan tanishadilar. Bu fikr va mulohazalar har bir davrda o'ziga xos tushuncha va g'oyaga ega bo'lgan. Umuman tibbiyot tarixi fani talabalarning kasbiy-estetik va ma'rifiy-ma'naviy jihatdan chuqur bilimli mutaxassislar bo'lib yetishishlarida katta rol o'ynaydi. Odamlar yashash uchun hech narsa ishlab chiqarmay, tabiatdagi mavjud yemishlarni iste'mol qilib kun kechirganlar. Shuningdek, ular tibbiyot sohasida ham hech narsa kashf etmay, tabiatdagi mavjud shifobaxsh o'simliklardan foydalanganlar. Keyingi davrlarda ijtimoiy-iqtisodiy hayotning taraqqiyoti bilan birgalikda tibbiyot ham rivojlanib bordi. Tibbiyotning rivojlanishida boshqa fanlar, xususan, tabiiy-biologik bilimlar ham muhim rol o'ynadi. Masalan, botanika fani yangi-yangi shifobaxsh o'simliklarni kashf etib, farmakologiya fanini boyitdi. Biologiya, mikrobiologiya, parazitologiya fanlari kasalliklar sabablarini aniqlash imkoniyatini berdi.[1]

Kalit so'zlar: *sog'liqni saqlashd davolash - profilaktik yordam, aholi salomatligini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ish va yashash sharoitlarini sog'lomlashtirish.*

KIRISH

Tibbiyotning rivojlanishida texnikaviy fanlar ham muhim rol o'ynadilar. Masalan, mikroskopning kashf etilishi yangi dunyoni mikroorganizmlar dunyosini ochdi. Rentgen nurlarining kashf etilishi tashxis usulini takomillashtirdi. Bu misollar shuni ko'rsatadiki, tibbiyotning rivojlanishi haqiqatan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning deyarli barcha sohalari bilan bog'liq va ular bilan birga rivojlanadi. Tibbiyot tarixi fani umumiy va xususiy qismlarga bo'linadi. Umumiy tibbiyot tarixi tibbiyotni

bir butun, to'raligicha o'rganadi, uning taraqqiyot qonunlarini ochadi, insoniyat jamiyati taraqqiyotining har bir bosqichida tibbiyotning rivojlanish darajasini belgilaydi.[2] Xususiy tibbiyot tarixi tibbiyotning ayrim sohalarining kelib chiqishi va rivojlanishini o'rganadi. Umumiy tibbiyot tarixi bilan xususiy tibbiyot tarixi o'rtasida m a'lum farq mavjud. Shu bilan birga ular bir-birlari bilan bog'liqdirlar. Umumiy va xususiy tibbiyot tarixi birlashib tibbiy-tarixiy bilimni tashkil etadi. Umumiy tibbiyot tarixi mustaqil fan sifatida o'qitiladi. Xususiy tibbiyot tarixi esa har bir tibbiy fanning kirish qismida bayon etiladi. Masalan, talabalarga anatomiya fanidan dars berishda dastlab bu fanning kelib chiqishi va rivojlanish tarixi bayon etiladi va h.k. Tibbiyot tarixi fanining asosiy vazifasi tibbiyotning qanday sharoitda, qanday kelib chiqqani va rivojlanganini manbalarga asoslanib tushuntirib berishdir. Unda tibbiyotning kelib chiqishi va rivojlanishi haqidagi turli tushunchalar, fikrlar va nazariyalar tahlil qilinadi. Shu bilan birga tibbiyot ilmi sohasida qilingan yirik kashfiyotlar o'rganilib ularga baho beriladi. Xususiy tibbiyot tarixi tibbiyotning ayrim sohalarining rivojlanish tarixini o'rganish bilan shug'ullansa ham u umumiy tibbiyot tarixiga hissa qo'shadi. Xususiy tibbiyot tarixi umumiy tibbiyot tarixini boyitadi.[3]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Sog'liqni saqlash – tibbiy yordamni tashkil qilish, har bir inson va umuman aholi salomatligini saqlash va yaxshilash maqsadida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy, davlat ijimoiy tadbirlarining birlashmasi. Sog'liqni saqlash chora-tadbirlari - profilaktika tamoyillariga, tibbiyotning umumiy yordami, majburiy tibbiy sug'urta, tibbiyot ilmining sog'liqni saqlash amaliyoti bilan uzluksiz aloqasi, aholisalomatligiga davlat va jamoatchilikning faol ishtirokiga asoslangan. Sog'liqni saqlashning uchta asosiy komponenti mavjud:

1. Davolash - profilaktik yordam.
2. Respublikaning sanitariya-epidemiologiya nazoratini ta'minlash: yuqumli kasalliklar epidemiyasining oldini olish, ichimlik suvi sifatining, oziqovqat maxsulotlari, atmosfera havosi va boshqalarning sanitariya nazorati.
3. Aholi salomatligini mustahkamlash: sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ish va yashash sharoitlarini sog'lomlashtirish.[4]

Tibbiyotning fan sifatida shakllanishida yozuvning kashf etilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Aynan yozuv tufayli tibbiyot empirik amaliyotdan fanga aylandi. Tabiblar dorilarning xususiyatlarini retseptda ko'rsatish bilan cheklanib qolmay, har xil kasalliklar va ularning belgilarini yozib bora boshladilar. Shunday qilib birinchi tibbiy adabiyot paydo bo'ldi.[5]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

QVP - kichik shahar tipidagi aholipunktlari, kichik sanoat korxonalarini yoki qishloq xo'jaligi o'quv-uchastka aholisiga ambulator tibbiy yordam bilan ta'minlash

uchun mo'ljallangan davolash va profilaktika muassasasi. Qishloq joylarida ambulatoriya xizmatlari qishloq sog'liqni saqlash tizimining asosiy tarkibiy bo'linmasi bo'lgan paramedik va akusherlik punktlari orqali ta'minlanishi mumkin.

Tez tibbiy yordam stantsiyalari aholiga favqulodda vaziyatlarda tibbiy yordam ko'rsatib, kun davomida uzluksiz ishlaydi. Brigadani mustaqil ravishda chaqiruvlarga qoldiradigan, birinchi yordamni ko'rsatadigan va bemorlarni kasalxonaga yotqizadigan paramedik boshqarishi mumkin. Yuqori malakaga ega bo'lgan ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni shifokor boshchiligidagi jamoa ta'minlaydi va paramedik unga bemorlarni parvarish qilish va tashishda yordam beradi.[6]

Statsionar yordam. Bemorning ahvoli sistematik kuzatuvni, shuningdek murakkab diagnostika va davolash muolajalarini, ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni talab qilsa, statsionar turdagi muassasasiga yuboriladi. Statsionar (lotincha stationarius - doimiy, harakatsiz) – davolashprofilaktika muassasasining tarkibiy qismi (shifoxona, kasalxona, dispanser) bo'lib, bu yerda shu muassasa tibbiy xodimlarining nazorati ostida bemorlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish va davolash doimiy ravishda amalga oshiriladi (kunduzgi statsionardan tashqari).

Dispanser (lotincha dispense - tarqatish-taqsimlash) dispanser usuliga muvofiq ishlaydigan maxsus ixtisoslashtirilgan davolash-profilaktika muassasasidir. Dispanser muayyan kasallikka chalingan bemorlar guruhlarini faol erta aniqlash va ularni ruyxatga olish, ularni tizimli- dinamik kuzatish, ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish, mehnat rehabilitatsiya va bu bemorlarning hayot uchun tavsiyalar ishlab chiqish, shuningdek, kasallik va uning sabablarini o'rganish, kasalliklarning oldini olish chora tadbirlarini ishlab chiqish va sanitar-oqartuv ishlarni amalga oshiradi.

Gospital - harbiy va urush nogironlarini davolash uchun shifoxona.

Sanatoriy - (lotinchanasanatum –davolanish) kasallarni davosini davom ettiriladigan statsionar muassasadir. Odatda qulayiqlimga ega bo'lgan, mineral suvlar, shifobaxsh loylar bilan ta'minlangan joylarda faoliyat ko'rsatadi. Ayni paytda ixtisoslashgan konsultativ - diagnostika markazlari kasalxonalar, klinikalar, tibbiyot akademiyalari, tibbiyot oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari, asosida diagnostika markazlari yaratilib, ularda bemorlarni yuqori malakali ambulator tibbiy ko'rik o'tkazish va statsionar davolash amalga oshiriladi.[7]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda insonning hayotida eng ahamiyatlisi bu uning sog'lig'i hisoblanadi. Shu bois, har bir inson eng avvalo, o'zi, oilasi va yaqinlarining salomatligi uchun ma'sul bo'lishi lozim. O'zbekistonni jannatmakon o'lka desak yanglishmaymiz chunki har qadamimizda dardimizga davo bo'luvchi o'simliklar o'sib gullayabdi. Yon-atrofimizdagi bizni qamrab olgan barcha o'simliklar kasalliklarga davo hisoblanadi. Lekin, inson avvalo o'zining va yaqinlarining sog'ligiga e'tiborli bo'lsa, bunda har

qanday kasallikni davolashdan ko'ra, uni oldini olish oson va samarali ekanligi o'z ifodasini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mukhamedzhanovna, M. Z., Akmalovna, U. N., Abdusamatovich, K. S., Gapparovna, S. D., Arifovna, U. D., & Tashpulatovna, K. P. (2021). Bioethics-Paradigm of Humanization of Medical Education. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 125-133. Mamasidiqova, I.,
2. Sattorova, D. G. (2023). DIFFERENT MODELS OF INTERACTION BETWEEN THE DOCTOR AND THE PATIENT. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(14), 477-480.
3. Сатарова, Д. Г. (2014). СОЦИАЛЬНЫЙ ИДЕАЛ И ПОСТКОЛОНИАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ ДЛЯ" ПОНИМАЮЩЕГО КОНТРОЛЯ". *Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов*, (1), 106-108.
4. Саттарова, Д. Г. (2015). Стратегия компьютеризации и информатизации и проблема гуманизации образования. *International Journal of Education and Research*, 3(1), 116.
5. Sattorova Dildor Gapparovna, & Xudaybergenova Patma Toshpulatovna. (2021). IMPROVING THE QUALITY OF MEDICAL SERVICES IN IMPROVING THE GENE POOL OF THE POPULATION IN OUR COUNTRY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(10), 138–141. Retrieved from <https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/312>
6. Abdullayeva, G. J., & Sattorova, D. G. GLOBAL BIOETIKANING AXLOQIY MUAMMOLARI.
7. Sattorova Dildor Gapparovna, & Xudaybergenova Patma Toshpulatovna. (2021). IMPROVING THE QUALITY OF MEDICAL SERVICES IN IMPROVING THE GENE POOL OF THE POPULATION IN OUR COUNTRY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(10), 138–141. Retrieved from <https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/312>
8. Sattorova , D. G. (2023). DIFFERENT MODELS OF INTERACTION BETWEEN THE DOCTOR AND THE PATIENT. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(14), 477–480. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4470>
9. Sattorova, D. G. (2023). THE ROLE OF BIOETHICS TODAY. *GOLDEN BRAIN*, 1(24), 24–30. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4726>
10. Sattorova, D., & Yuldashev , T. (2023). THE ROLE OF THE NATIONAL IDEAL IN THE RENEWED UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(5), 511–

514. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/20272>

11. More Citation Formats

12. Sattorova, . D. (2023). UNDERSTANDING OF SOCIAL IDEALS AND NATIONAL IDENTITY IN THE DEVELOPMENT OF A NEW UZBEKISTAN . (YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA IJTIMOIIY G‘OYALAR VA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH). *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 2(10), 82–84. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/view/11685>

13. Gapporovna, S. D. . (2023). STRATEGIC DEVELOPMENT OF HUMANISTIC EDUCATION AND MEDICINE, IMPROVEMENT OF IDEAS. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 121–122. Retrieved from <http://jica.innovascience.uz/index.php/jica/article/view/164>

14. 13.Usmonov, B., Rakhimov, Q., & Akhmedov, A. (2023, March). The problem of takeoff and landing of a hereditarily deformable aircraft in a turbulent atmosphere. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2612, No. 1, p. 060015). AIP Publishing LLC.

15. 14.Усмонов, Б. Ш., & Рахимов, К. О. (2020). Построение математической модели в прямой и вариационной постановке задачи изгибно-крутильного колебания наследственно-деформируемого крыла самолета. *Проблемы вычислительной и прикладной математики*, (5), 108-119.